



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	12-17
<i>Qurbanov Xurshid Raupovich</i> O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN "MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI	51-54
<i>Sodiqova Yulduzzon Maxamat qizi</i> O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2024 yy)	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXELOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	60-64
<i>Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)	65-69
<i>Mardiyeva Guzel Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING	
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i>	
O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA	
IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i>	
O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	
BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI	
RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i>	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI	
FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i>	
SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI	
VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i>	
XORIJY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA	
KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI T AHLILI	
(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA	
INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i>	
“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyevich</i>	
OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY	
OMILLARNING FALSAFIY T AHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i>	
ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ	
МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i>	
SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	181-185
<i>Karimov Yo'lqosh Ergashevich</i>	
TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Агзамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i>	
MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i>	
ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i>	
IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julianovna</i>	
"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i>	
FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i>	
O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i>	
ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i>	
MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI.....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i>	
ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i>	
PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i>	
VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i>	
COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhrribonu</i>	
THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i>	
DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	286-292
<i>Wang Cong</i>	
RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION	293-300
<i>Ли Адик</i>	
К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i>	
FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i>	
"KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI"	316-322
<i>Xatamov To'lqin Tojiddinovich</i>	
KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i>	
VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI	330-337
<i>O'ranova Dilshoda Adhamovna</i>	
OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI	338-347
<i>Geng Zhimin</i>	
RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i>	
ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i>	
ВОПРОСЫ ПРОТИВODEЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i>	
DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI	368-374
<i>Abbosov Mirluton Mirsharof o'g'li</i>	
JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i>	
O'ZBEKISTONNING MIGRATSIIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Aбророва Камола Сайдмухторовна</i>	
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i>	
RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i>	
"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'iy INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALAR"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i>	
INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i>	
VALYUTA QIMMATLIKARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i>	
KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i>	
"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i>	
EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i>	
FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i>	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i>	
ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

12.00.00 - YURIDIK FANLAR - LAW

Received: 16 March 2025

Accepted: 5 April 2025

Published: 15 April 2025

Article / Original Paper

THE CONCEPT AND CHARACTERISTICS OF PUBLIC SERVICES AND CIVIL-LEGAL SERVICES

Xodjiyev Yunus Muxitdinovich,

PhD, Associated professor of private law at TSUL

E-mail: yunushodjiev@mail.ru

Abstract. This article analyzes the concept of the provision of public services, their fundamental difference from civil law services provided to legal entities and individuals by state bodies authorized to provide certain services. In addition, it was noted that as a result of the provision of public services, interested persons acquire an administrative act of administrative bodies.

Keywords: public services, proactive, composite, procedure, transparent, administrative regulation, electronic services, traditional services, center, electronic portal, electronic document, electronic service, traditional service.

**DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR
TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Xodjiyev Yunus Muxitdinovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Fuqarolik huquqi” kafedrasи dotsenti, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat xizmatlari ko'rsatishning tushunchasi, uning fuqarolik-huquqiy xizmatlardan tubdan farq qilishi, bu xizmatlar yuridik va jismoniy shaxslarga u yoki bu xizmatni ko'rsatishga vakolatli davlat organlari tomonidan ko'rsatilishi tahlil qilindi. Shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatish natijasida manfaatdor shaxslar ma'muriy organlarning ma'muriy hujjatiga ega bo'lishlari alohida ko'rsatib o'tildi.

Kalit so'zlar: davlat xizmatlari, proaktiv, kompozit, tartib-taomil, shaffof, ma'muriy reglament, elektron xizmatlar, an'anaviy xizmatlar, markaz, elektron portal, elektron hujjat elektron xizmat, an'anaviy xizmat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N46>

Kirish. Mamlakatimizda aholi va tadbirkorlarga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimining yaratilishi bu demokratik islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha oldimizda qo'yilgan ulkan va muhim vazifalarning bajarilishi ma'muriy islohotlarning ustuvor yo'nalişlarini amalga oshirilishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Bunday tizimning yaratilishi “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan prinsip barcha bo'g'indagi rahbarlar faoliyatida asosiy qoidaga aylanishi kerakligi tamoyilining hayotga tatbiq etilishidan darakdir.

Aholi va tadbirkorlarga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'rzasida “Bugungi kunda aholimizning Xalq qabulxonalariga bo'lgan ishonchi tobora ortib

bormoqda. Ushbu tuzilmalarning davlat organlari mansabdor shaxslari mas'uliyatini oshirishdagi roli borgan sari ko'proq sezilmoqda. Barchamiz yaxshi tushunamiz, xalqimizning hayot darajasi o'sishi, ko'pgina muammolar hal qilinishi bilan Xalq qabulxonalariga murojaatlar kamayib boradi. Shuning uchun bu qabulxonalar imkoniyatlarini biz davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasiga yo'naltiramiz" degan fikrlari asos vazifasini bajardi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrdagi PF-5278-son "Ahola davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini shakllanishi uchun omillari bilan bir qatorda, ushbu tizimning shakllanish tarixi va tendensiyasi ham jumladan, 2003-yildan buyon tadbirkorlik subyektlarini «yagona darcha» tamoyili bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari tomonidan amalga oshirib kelinganligi, 2016-yil 1-yanvardan boshlab Inspeksiyalar negizida Tadbirkorlik subyektlariga «yagona darcha» tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari tashkil etilganligi, 2017-yil 1-fevraldan Yagona markazlarning tumanlar (shaharlar) hokimliklari tuzilmasidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tasarrufiga o'tkazilishi mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha keyingi qadam bo'lib, vertikal boshqaruvni shakllantirish, ularning samarali faoliyatini tashkil etish imkonini bergenligi natijasida davlat xizmatlari markazlari tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni bugungi kunga kelib 356 taga yetkazildi, 2024-yilning 1-choragida Markazlar orqali 7,9 mln davlat xizmatlari ko'rsatildi, shundan 5,6 mln.ga yaqini Markazlar orqali, 2,3 mln.dan ortig'i onlayn tarzda ko'rsatildi.

Shu bilan birga, davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimining aholi va tadbirkorlik subyektlari ehtiyojlarini to'liq qanoatlantiradigan sifat jihatidan yangi darajaga o'tishiga to'sqinlik qilayotgan ayrim tizimli muammolar ham ko'rsatilgan. Xususan, fuqarolar hanuzgacha turli davlat organlarida hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha murakkab tartib-taomillardan o'zlar o'tishga majbur bo'layotganligi;

qator davlat organlarida axborot tizimlari, resurslari va ma'lumotlar bazalarining mavjud emasligi, ular idoralararo integratsiya qilinishining past darajada ekanligi jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan barcha davlat xizmatlari majmuasidan qulay va o'z vaqtida foydalanishni ta'minlamayotganligi;

ko'pchilik davlat xizmatlarini ko'rsatishning tartib-taomillari murakkab va foydalanish uchun qiyin bo'lib, narxni shakllantirish mexanizmlari shaffof emas, alohida hollarda tor idoraviy manfaatlarda «monopol» xizmatlar ko'rsatishga talablar belgilanganligi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishining past darajada ekanligi, qog'oz hujjatlar aylanmasining saqlanib qolgan andozalari asossiz moliyaviy xarajatlarga, fuqarolar ko'p vaqt kutib qolishi va navbatlar yuzaga kelishiga hamda oqibatda, ayrim hollarda korrupsiya va byurokratiya holatlariga olib kelayotganligi;

davlat xizmatlari ko'rsatishni, shu jumladan real vaqt rejimida masofadan monitoring qilish va jamoatchilik fikrini o'rganish orqali nazorat qilish va sifatini baholashning ta'sirchan tizimi mavjud emasligi.

Yuqorida qayd etilgan omillar aholining davlat xizmatlaridan keng foydalanishini ta'minlash, ularni ko'rsatish bilan bog'liq vaqt va moliyaviy xarajatlarni kamaytirish, aholining davlat organlari faoliyatidan qanoatlanganlik darajasini oshirish imkonini bermaganligi aholi

va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatishning yangi zamonaviy tizimiga o'tishga sabab bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Rossiyada ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonun bo'lmasligi sababli, davlat xizmatlarini ko'rsatish ma'muriy reglamentlar orqali tartibga solingan. Shunga ko'ra, ba'zi mutaxassislarimiz A. Musaev davlat xizmatlari ko'rsatilishini ma'muriy tartib-taomillar doirasiga kiritadi [2, 173 b.].

I.A.Xamedov esa, davlat xizmatlariga "Davlat xizmatlari bu — aniq manfaatdor shaxslarga nisbatan davlat nomidan vakolatli organ va tashkilotlar tomonidan bajariladigan, ushbu shaxslar manfaati yo'lida yoki qonun hujjatlari bilan o'rnatilgan ommaviy tartibga rioya etish yuzasidan, ma'lumotlar, moddiy yoki nomoddiy manfaatlar, huquq va ustunliklar, shuningdek yuridik ahamiyatga ega hujjatlar taqdim etish shaklidagi, davlat boshqaruvining funksiyalari va ommaviy yo'naltirilganligini ifoda etadigan, taqdim etish xarakteridagi harakatlardir deb ta'rif bergan" [3, 20 b.].

J.Ne'matov esa, ma'muriy tartib-taomillar va davlat xizmatlari mazmun-mohiyati va qamroviga ko'ra bir-biridan keskin farq qilishi, ma'muriy tartib-taomillarga "adresat uchun istalmagan xarakterdagi vakolatli organ va tashkilotlarning ijroiya-farmoyish faoliyati" ni kiritish mumkin bo'lsa, davlat xizmatlariga esa bunday faoliyatni kiritib bo'lmaslikni, uning fikricha davlat xizmatlari va ma'muriy tartib-taomillarni bir-biridan farqlash lozim. Davlat xizmatlarini ko'rsatishga ma'lum ma'noda ma'muriy tartib-taomillarning alohida yoki maxsus (sub)institutlari yoki (sub)institutlarining bir qismi sifatida qarash mumkin deb ta'kidlaydi [4, 12-27 b.].

Muhokama. Davlat xizmatlari ko'rsatishning zamonaviy tizimi bu aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan hamda ushbu sohasini boshqarishda tashkil etilgan tuzilmalarning sohani boshqarish prinsiplari, qarorlar qabul qilishning uslubi, yuklatilgan vazifa va funksiyalarining yaxlitligidir.

Samarali davlat xizmatlari ko'rsatishni uchun Adliya vazirligi tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshirilmoqda.

1) jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

2) ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bartaraf etish hisobiga davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish, shuningdek idoralararo elektron hamkorlikni rivojlantirish;

3) Davlat xizmatlari yagona reyestrini shakllantirish, ushbu sohada davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

4) davlat xizmatlari ko'rsatishda foydalilaniladigan axborot tizimlari, resurslar va ma'lumotlar bazalarini loyihalashtirish, ishlab chiqish, joriy etish va integratsiya qilishga yagona yondashuvlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

5) davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida, shu jumladan tegishli axborot tizimlari, resurslari va ma'lumotlar bazalarini joriy etish bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish va samaradorligini baholash;

6) davlat xizmatlari ko'rsatishning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishni tashkil qilish, ushbu sohada qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimida amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", degan ezgu tamoyilni hayotga tatbiq qilish, davlat boshqaruvi tizimini byurokratiyadan xoli etish hamda boshqaruv qarorlari qabul qilish tizimining faoliyat samaradorligini va shaffofligini oshirish, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar hamda texnologiyalar tizimini, eng avvalo, korrupsiya ko'rinishlarining oldini olishga qaratilgan samarali shakllarini joriy etish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish orqali davlat xizmatlari ko'rsatishning samaradorligini kafolatlash, eng muhim, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylik hamda huquq-tartibotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatishga oid alohida qonun qabul qilinmagan bo'lsada, davlat xizmatlari ko'rsatishning tushunchasi O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonuni va har bir ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sohalariga oid ma'muriy reglamentlarda keltirilgan.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish bu ma'muriy tartib taomil ekanligini hisobga olsak, O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga ko'ra, ushbu Qonun ma'muriy organlarning manfaatdor shaxslarga nisbatan ma'muriy-huquqiy faoliyatiga, shu jumladan litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillariga, davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq boshqa tartib-taomillarga, shuningdek qonun hujjalariiga muvofiq boshqa ma'muriy-huquqiy faoliyatga nisbatan tatbiq etiladi.

Demak, litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish, davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonlari ma'muriy tartib taomil hisoblanadi. Shu barobarida ushbu qonun davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlarni ham tartibga soladi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish tushunchasi fuqarolik-huquqiy xizmat tushunchasidan farqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1-moddasiga ko'ra, fuqarolar (jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslar o'z fuqarolik huquqlariga o'z erklariga muvofiq ega bo'ladilar va bu huquqlarini o'z manfaatlарини ko'zlab amalga oshiradilar. Ular shartnoma asosida o'z huquq va burchlarini belgilashda va qonun hujjalariiga zid bo'limgan har qanday shartnoma shartlarini aniqlashda erkindirlar.

Ushbu kodeksining 3-moddasida fuqarolik qonun hujjalari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatları va o'zga majburiyatları, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishi belgilangan.

Natijalar. Demak fuqarolik-huquqiy xizmatlarni olishda yuridik va jismoniy shaxslar fuqarolik huquqlarga o'z erklariga muvofiq ega bo'ladilar hamda ushbu huquqlarni o'z manfaatlarni ko'zlab amalga oshiradilar. Shuningdek, ular shartnoma asosida o'z huquq va burchlarini belgilashda hamda qonun hujjalariiga zid bo'limgan har qanday shartnoma shartlarini aniqlashda erkindirlar.

Fuqarolik-huquqiy xizmatlar fuqarolik qonun hujjalarida belgilanganidek bitim va harakatlar orqali jismoniy, yuridik shaxslar va davlat ishtirokida vujudga keladi. Bunday

xizmatlarni olishda tomonlarning tengligiga asoslanadi. Fuqarolik-huquqiy xizmatlarda esa, ikki tomon kelishuvga erishsa bitim tuziladi.

Davlat xizmatlari fuqarolik-huquqiy xizmatlardan tubdan farq qiladi. Albatta bu xizmatlar yuridik va jismoniy shaxslarga u yoki bu xizmatni ko'rsatishga vakolatli davlat organlari tomonidan ko'rsatiladi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatishdi qabul qilinayotgan ma'muriy hujjat yoki ma'muriy harakat qaratilgan shaxs, shuningdek huquqlari va qonuniy manfaatlari ma'muriy hujjatga yoki ma'muriy harakatga daxldor bo'lgan yoxud daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs manfaatdor shaxslar oxir oqibat ma'muriy organning ommaviy huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishga, o'zgartirishga yoki tugatishga qaratilgan hamda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud muayyan xususiy belgilariga ko'ra ajratiladigan shaxslar guruhi uchun muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi ma'muriy hujjatga ega bo'ladilar.

Demak, davlat xizmatlarini ko'rsatish natijasida manfaatdor shaxslar ma'muriy organlarning ma'muriy hujjatiga ega bo'ladilar.

Davlat xizmatlari turlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin.

Xizmat ko'rsatish shakllarga bo'lish maqsadi	Xizmat turlari
Murojaat etuvchilarning xarajatlari bo'yicha	Bepul – qonun hujjatlarida bunday xizmatlar bepul ko'rsatilishi belgilanadi. Pullik – qonun hujjatlarida bunday xizmatlarni olishning miqdori ko'rsatilgan bo'ladi.
Murakkabligi bo'yicha	Oddiy xizmat – bitta davlat xizmati ko'rsatilishi nazarda tutiladi Murakkab xizmat – tarkibiga bir nechta davlat xizmatlari kiradi.
Xizmat ko'rsatishi tartibiga bo'yicha	An'anaviy usulda, Davlat xizmatlari markazlari orqali, yagona davlat xizmatlari portalni orqali elektron.
Murojaat etuvchi va xizmat ko'rsatuvchining o'zaro aloqasining xususiyati bo'yicha	Bitta vakolatli organ tomonidan ko'rsatiladigan sodda xizmatlar. Bir nechta vakolatli idoralar tomonidan ko'rsatiladigan Kompozit va idoralararo hamda proaktiv xizmatlar.
Natijasi bo'yicha	1) fuqarolarning konstitutsiyada belgilangan huquqlarini amalgalash; 2) xizmat oluvchilarning qonunda belgilangan majburiyatlarni amalgalash; 3) xizmat oluvchilarning qonuniy manfaatlarini amalgalash.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish bu – davlat xizmatlarini ko'rsatish vakolatiga ega organlarning qonun hujjatlarida belgilangan davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bilan bog'lik funksiyalarni xizmat oluvchilarning so'roviga ko'ra, normativ-huquqiy hujjatlar chegarasida amalgalash faoliyati hisoblanadi.

Davlat xizmatlari bu davlat boshqaruvi tizimining bir elementi sifatida ko'rib chiqib oxir oqibat davlat xizmatlarining quyidagi belgilarga ajratish mumkin.

- bu vakolatli organlarning konkret funksiyalarini amalga oshirish bo'yicha faoliyatidir;
- bunday faoliyat murojaat etuvchilarning so'rovlari bo'yicha amalga oshiriladi;
- ijro etuvchilarda davlat xizmatini ko'rsatish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vakolatlarining chegarasi bor;
- ushbu faoliyat murojaat etuvchilarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish bilan bog'liq.

Davlat xizmatlariga oid murojaatlarni ijro etuvchilar tarkibiga vakolatli idoralarning davlat xizmatini ko'rsatish bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilgan xodimlari kiradi.

Arizachi yoki xizmat oluvchi ham Davlat xizmatlarini ko'rsatishda yana bir tomon sifatida namoyon bo'ladi. Arizachi – davlat xizmatlarini olish maqsadida vakolatli davlat organlariga Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali vakolatli organlarga murojaat etuvchi jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek ularning vakolatli vakillaridir.

Davlat xizmatlarini olishda arizachining nomidan O'zbekiston Respublikasi Qonuni talabi asosida rasmiylashtirilgan ishonchnoma orqali harakatlanayotgan shaxslar vakolatli vakillar ishtirok etishlari mumkin.

Davlat xizmatlarini olish jarayonida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan bir qatorda chet el fuqarolari ham qatnashishlari mumkin.

Ayrim xizmatlarni olishda faqat O'zbekiston fuqarolari ishtirok etishlari qonun hujjatlarida belgilanadi. Masalan (xorijga chiqish pasporti yoki ID kartalarni) olishda.

Davlat xizmatlarini olish yoshi bola tug'ilganidan boshlanadi. Biroq, holda bunday (tug'ilganlik haqida guvohnoma, MTMga joylashtirish, ro'yxatga qo'yish) xizmatlar voyaga yetmaganning qonuniy vakillari tomonidan olinadi. Davlat xizmatlarni mustaqil olish bola voyaga yetgandan so'ng amalga oshiriladi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonida ishtirok etayotgan subyektlarning (xizmat ko'rsatuvchi va xizmat oluvchi) qonun hujjatlarida huquq va majburiyatlar belgilanadi.

Xizmat ko'rsatuvchilarning qonun hujjatlarida quyidagi huquq va majburiyatlar ko'rsatilgan. Ya'ni, davlat xizmatini ko'rsatishni tartibga soluvchi qonun hujjatida belgilangan muddatda murojaatlarni hal etish, davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatiladigan xizmatlarni to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmaslik, qonun hujjatida belgilanmagan hujjatlarni talab qilish, murojaatlarni qonun hujjatida belgilanmagan asoslar bo'yicha murojaatlarni rad etmaslik.

Xizmat oluvchilarning ham qonun hujjatlarda huquq va majburiyatlar ko'rsatilgan. Ya'ni, davlat xizmatini olish uchun belgilangan hujjatlarni taqdim etish, davlat xizmati uchun belgilangan yig'im va bojni to'lash, davlat xizmatidan foydalanishdan uni ko'rsatishning har qanday bosqichida bosh tortish.

Xulosa. Demak, Davlat xizmatlarini ko'rsatish bu – davlat xizmatlarini ko'rsatish vakolatiga ega organlarning qonun hujjatlarida belgilangan davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bilan bog'lik funksiyalarni xizmat oluvchilarning so'roviga ko'ra, normativ-huquqiy hujjatlar chegarasida amalga oshirish faoliyati hisoblanadi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimi esa, davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida vakolatli organlar va ularning davlat xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish vakolatiga ega organning tartibli va tizimlashtirilgan faoliyatidir.

Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, Fuqarolik-huquqiy xizmat bilan Davlat xizmatlarini ko'rsatishga oid ijtimoiy munosabatlar va ularni tartibga soluvchi normalar bir-biridan tubdan farq qiladi, demak fuqarolik-huquqiy xizmatlar tomonlar tengligi asosida vujudga keladi hamda bekor bo'ladi. Davlat xizmatlari esa, davlat organlari tomonidan davlatga tegishli funksiya va vazifalarni uning organlari tomonidan amalga oshirishning shakli bo'lib, bu xizmatlarni bevosita davlat organlari tomonidan ko'rsatiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. <https://president.uz/uz/lists/view/1328>.
2. Мусаев А. Законодательство об административном судопроизводстве в Республике Узбекистан // Ежегодник публичного права 2015: Административный процесс. - М.: Инфотропик Медиа, 2015. - С. 173.
3. Хамедов И.А. к вопросу о понятии и инвентаризации государственных услуг в Республике Узбекистан//Узбекистон Республикаси Бош прокуратурасининг Олий ўқув курслари ахборотномаси.-2016.-№ 2(26).-С. 20. (Khamedov I.A On the issue of the concept and inventory of public services in the Republic of Uzbekistan//High training courses of the GPO.-2016.-№ 2 (26).-P. 20.)
4. Nematov J.N. SCIENTIFIC AND THEORETICAL ANALYSIS OF ADMINISTRATIVE PROCEDURES AS AN INSTITUTE OF LAW. Journal of Law Research. 2019, 7 vol., issue 1, pp. 12-27

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).